

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI

**ENDOKRINOLOGIYA XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH VA  
KO'LAMINI KENGAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RIDA**

2019 — 2021-yillarda respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha milliy dastur doirasida diagnostika va davolashning yangi standartlari tasdiqlandi, 75 ming nafarga yaqin bemorlar 40 milliard so'mdan ziyod Davlat budjeti mablag'lari hisobiga 100 foiz insulin bilan bepul ta'minlandi, 200 milliard so'mga yaqin mablag' evaziga 14 ta hududiy endokrinologiya muassasalarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, 3,3 million AQSh dollari miqdorida zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, endokrinologiya xizmatini respublika bo'yicha yagona integratsiyalashgan tizim sifatida shakllantirish, yod yetishmovchiligi bilan bog'liq kasalliklar profilaktikasi, qandli diabet kasalligi hamda uning oqibatlarining oldini olish bilan bog'liq tibbiy-ijtimoiy tadbirlar samaradorligini qayta ko'rib chiqish talab etilmoqda.

Aholiga ko'rsatilayotgan endokrinologik yordamning samarali hamda zamonaviy tizimini shakllantirish, kasalliklar va ularning asoratlari profilaktikasini takomillashtirish, aholiga yuqori malakali endokrinologiya yordamini ko'rsatish sifatini hamda ushbu yo'nalishdagi tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar aholiga ko'rsatilayotgan endokrinologiya xizmatini tashkil etishning eng muhim yo'nalishlari etib belgilansin:

a) akademik Y. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) — hududiy tibbiyot muassasalari — tuman (shahar) tibbiyot muassasalari o'rtasida tizimli uzviy bog'liqlikni ta'minlash;

b) sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida endokrin kasalliklar profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va boshqarish dasturlarini amaliyotga joriy etish. Bunda:

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish hamda jismoniy faollikni oshirishni targ'ib etish;

oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali kasallikni barvaqt aniqlash va oldini olish ko'lamini kengaytirish;

tuman (shahar) tibbiyot muassasalari tor soha mutaxassislari faoliyatiga endokrin kasalliklarni erta tashxislash, asoratlarning oldini olish algoritmlarini joriy qilish;

v) qandli diabetga chalingan bemorlarning zamonaviy dispanser nazorati (onlayn registr) tizimini joriy etish orqali har bir bemor holatining monitoringini yuritish;

g) aholining kasallikka chalinish xavfi yuqori bo'lgan guruhlari, jumladan, bolalar, o'smirlar, homilador va emizikli ayollarni yod preparatlari bilan bepul ta'minlash orqali yod tanqisligi kasalliklarining samarali profilaktikasini ta'minlash;

d) "Profilaktika maktablari"ga tor soha mutaxassislarini jalb etgan holda bemorlar va ularning oila a'zolariga endokrin kasallikni boshqarish usullarini hamda kasallik bilan yashashni o'rgatish;

e) tashxislash va davolashning yuqori texnologiyali hamda innovatsion usullarini amaliyotga joriy etish orqali hududlarda va Markazda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari ulushini oshirish;

j) endokrinologiya yo'nalishida ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish, soha xodimlarining ilmiy salohiyatini oshirish.

2. 2022-yil 1-apreldan boshlab endokrin kasalliklarni erta aniqlash va maqsadli kuzatishni ta'minlash uchun quyidagilarni nazarda tutuvchi tibbiy kuzatuv va patronajning yangi modeli joriy etilsin:

oilaviy shifokorlarni endokrin kasalliklarni tashxislash hamda davolash bo'yicha qayta tayyorlash;

endokrin kasalliklar mavjud oilalarga maxsus tayyorgarlikdan o'tgan patronaj hamshirasini biriktirish;

patronaj hamshirasi tomonidan endokrin kasalligi bo'lgan, umumiy holati qoniqarli yoki xavf guruhidagi aholini erta aniqlash va differensiallashgan yondashuv asosida kuzatib borish;

tibbiy kuzatuv natijalari bo'yicha xavf omillari yuqori bo'lgan bemorlarni shifokor oldi ko'rigi xonalari hamshiralari hamda oilaviy shifokorlarga yo'naltirish;

endokrin kasalliklar bo'yicha xavf guruhiga kiruvchi bemorlar ustidan doimiy kuzatuv o'rnatish maqsadida barcha tibbiyot brigadalarini glyukometr va maxsus test yaproqchalari bilan ta'minlash;

tashxislash va davolash maqsadida bemorlarni bir kunlik diagnostik statsionar kuzatish tizimini joriy etish.

3. 2022 — 2024-yillarda respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni rivojlantirish dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

4. Belgilansinki:

a) har yili kamida bir marta 40 yoshdan oshgan aholi qandli diabet va diabet oldi holatlari uchun maqsadli skriningdan o'tkaziladi hamda endokrin kasalliklar aniqlangan bemorlar bilan muntazam aloqa o'rnatiladi. Bunda, surunkali endokrin kasalliklar rivojlanishining oldini olish uchun endokrin kasalliklarni davolashning zamonaviy klinik protokollari va algoritmlari joriy etiladi;

b) 2022-yil 1-fevraldan boshlab an'anaviy va masofaviy (aralash) usulda tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bunda:

patronaj hamshiralari hamda oilaviy shifokorlar uchun endokrin kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash bo'yicha ikki haftalik o'quv kurslari tashkil etiladi;

endokrinolog shifokorlarni qayta tayyorlash uchun uch yarim oylik o'quv kurslari yo'lga qo'yiladi. Bunda, ular dastlabki ikki yarim oy davomida Markazda o'qitiladi hamda bir oy davomida tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida amaliyot o'taydi;

hududlarda faoliyat yuritayotgan endokrinolog shifokorlarning malakasini oshirish uchun bir oylik o'quv kurslari tashkil etiladi;

v) 2022-yil 1-aprelga qadar:

zarur glyukometr, maxsus test yaproqchalari hamda ignalar markazlashgan tartibda xarid qilinadi va tibbiyot brigadalariga yetkaziladi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida belgilangan standartlarga muvofiq jihozlangan shifokor oldi ko'rigi xonalari tashkil etiladi;

tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalaridagi endokrinolog shifokor xonalari zarur tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi.

5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq:

a) 25 yoshgacha bo'lgan qandli diabetning birinchi turi bilan kasallangan bemorlar analogli insulin hamda o'zini o'zi nazorat qilish vositalari (glyukometr va maxsus test yaproqchalari) bilan;

qandsiz diabet bilan kasallangan bemorlar, somatotrop yetishmovchilik bilan kasallangan bolalar hayotiy zarur maxsus dori vositalari (desmopressin va o'sish gormoni) bilan;

25 yoshdan oshgan qandli diabetning birinchi turi bilan kasallangan insulinga muhtoj, shuningdek, qandli diabetning ikkinchi turi bilan kasallangan bemorlar odam insulini bilan;

qandli diabetning ikkinchi turi bilan kasallangan hamda ehtiyojmand sifatida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri"da bo'lgan bemorlar metformin dori vositasi bilan bepul ta'minlanadi;

b) bemorlarga bepul beriladigan dori vositalari va tibbiy jihozlar markazlashgan tartibda xarid qilinadi hamda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari orqali taqsimlanadi.

6. Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat-xususiy sheriklik asosida 2020-yilning 10-fevralida "Toshkent shahrida namuna sifatida markazlashtirilgan klinik diagnostika laboratoriyasini tashkil etish, jihozlash va ekspluatatsiya qilish to'g'risida"gi 1-33K-son konsessiya shartnomasi imzolanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev):

Toshkent shahar hokimligi bilan birgalikda konsessiya shartnomasi doirasida 2022-yil 1-apreldan boshlab Toshkent shahridagi barcha poliklinika va tuman tibbiyot birlashmalari laboratoriyalarini markazlashtirish;

2022-yil yakuniga qadar tajriba sifatida har bir hududdan bittadan tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi muassasalarining laboratoriyalarini markazlashtirish va davlat-xususiy sheriklik asosida outsorsingga berish choralarini ko'rsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev) 2023-yil 1-aprelgacha tajriba natijalariga muvofiq laboratoriya xizmatini yaxshilash yuzasidan asoslangan takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

7. Belgilab qo'yilsinki:

tibbiyot xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, glyukometr, maxsus test yaproqchalari va ignalar, desmopressin, o'sish gormoni, analogli insulin, odam insulini hamda metformin maxsus dori vositalarini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi respublika budjetidan 2022-yilda sog'liqni saqlash tizimi uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan;

shifokor oldi ko'rigi va endokrinolog shifokor xonalarini tashkil etish hamda zarur tibbiy uskunalari bilan jihozlash, shuningdek markaziy laboratoriyalarni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar tegishli mahalliy budjetlar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bir hafta muddatda mazkur qaror talablariga muvofiq tegishli hududlarda 2022 — 2024-yillarda endokrinologiya yordami ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqsin hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishini ta'minlasin.

9. Sog'liqni saqlash vazirligining oilaviy poliklinikalar hamda tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalaridagi kattalar va bolalar shifokor endokrinologiyasi lavozimlarining shtat me'yorlarini bir shtat birligidan kam bo'lmagan miqdorda belgilash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Inoyatov) Moliya vazirligi (J. Abruyev), Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (B. Umurzakov) bilan birgalikda bir oy muddatda oilaviy poliklinikalar hamda tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalari shtat me'yorlarini qayta ko'rib chiqsin va tasdiqlasin.

10. Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev) Qurilish vazirligi (B. Zokirov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Toshkent shahar hokimligi (J. Artixodjayev) bilan birgalikda Markaz hamda uning ko'p tarmoqli klinikasi yangi bino va inshootlarini qurish, ta'mirlash hamda jihozlash ishlarini 2022-yil 1-mayga qadar yakunlash choralarini ko'rsin.

Bunda, zamonaviy talablar asosida zarur yo'nalishdagi bo'limlarni, shuningdek, maxsus laboratoriyalarni yaratishni nazarda tutgan holda qurilish ishlari olib borilishi va tibbiy texnikalar bilan jihozlanishi ta'minlansin.

11. Quyidagilar Markazning endokrin kasalliklarning oldini olish va davolash sohasidagi qo'shimcha vazifalari va faoliyat yo'nalishlari etib belgilansin:

metabolik sindrom yo'nalishida fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish;

metabolik jarrohlik amaliyotlarini amalga oshirish, endokrin kasalliklarni rentgenendovaskulyar tashxislash va davolash hamda buyrak usti bezlariga jarrohlik aralashuvining kaminvaziv endovizual usullarini joriy etish;

dori vositalarining nojo'ya ta'sirini o'rganish va minimallashtirish doirasida markazlashgan klinik sinovlar menejmenti va sifat nazorati tizimini yaratish;

xorijiy davlatlarning mazkur sohadagi ilmiy tashkilotlari va markazlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish hamda birgalikda tadqiqotlarni olib borish;

koronavirusda qandli diabetning kechishini ilmiy-amaliy jihatdan o'rganib, uning oldini olish bo'yicha standartlarni ishlab chiqish;

soha mutaxassislarini o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

12. Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev) Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan Markaz hamda hududiy tibbiyot muassasalaridan shaffof tanlov asosida tanlab olingan 50 nafargacha endokrinolog mutaxassislarni har yili nufuzli xorijiy endokrinologiya markazlarida malaka oshirishga yuborish, shuningdek, Markazning ilmiy malaka kengashi faoliyatiga yetakchi xorijiy mutaxassislarni jalb etish choralari ko'rsin.

13. Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev) Moliya vazirligi (T. Ishmetov) bilan birgalikda ikki oy muddatda:

sog'liqni saqlash muassasalarida pullik xizmatlarni rivojlantirish hamda tibbiy xizmatlar narxlarini bozor mexanizmlari asosida shakllantirish;

hududiy endokrinologiya dispanserlari faoliyatida har bir davolangan holat asosida moliyalashtirish mexanizmini, bemorlarni hisobga olish va navbat asosida davolanishga yo'llash tizimini joriy etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.

14. Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi (S. Kariyev), ikki oy muddatda endokrinologiya sohasida maxsus dori vositalari

ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalar faoliyatini kengaytirish, shuningdek, glyukometr va maxsus test yaproqchalarini respublikada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish choralari ko'rsin.

15. Sog'liqni saqlash vazirligi (B. Musayev) sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yuqumli bo'lmagan kasalliklar va ularning xavf omillariga qarshi kurashish hamda oldini olish, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bo'yicha maxsus turkum dasturlarni vazirlikning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ishlab chiqsin hamda ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilib borsin.

16. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mazkur qarorning mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalarida, shuningdek, aholi o'rtasida keng yoritilishini ta'minlasin.

Bunda, endokrin kasalliklarda sog'lom turmush tarzining ahamiyati, dori vositalarini hamda o'zini o'zi nazorat qilish vositalarini qo'llashga oid maxsus ko'rsatuvlar, ijtimoiy reklamalar va roliklarning muntazam namoyishi yo'lga qo'yilsin.

17. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib sog'liqni saqlash vaziri B. Musayev, Markaz direktori F. Turayev, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qarorning o'z vaqtida va natijali ijro etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari L.N. To'ychiyev zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2022-yil 26-yanvar,  
PQ-102-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi PQ-102-son qaroriga

ILOVA

**2022 — 2024-yillarda respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni rivojlantirish**

DASTURI

T/r	Tadbirlarning nomi	Amalga oshirish shakli	Bajarish muddatlari	Summa	Moliyalash tirish manbalari	Ijrochilar
<b>I. Endokrinologiya xizmati faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish</b>						

1.	Xalqaro tavsiyanomalar ga muvofiq, sog'liqni saqlashning barcha bosqichlarida endokrin kasalliklarni diagnostika qilish hamda davolashning standartlarini yangilash, qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash.	Vazir buyrug'i	2022-yil I — III chorak	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)
2.	Xalqaro tavsiyanomalar ga muvofiq, endokrin kasalliklarni skrining va diagnostika qilish, davolash va monitoring qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, birlamchi tizim amaliyotiga tatbiq etish va monitoringini amalga oshirish.	Vazir buyrug'i	2022-yil II chorak	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)
3.	Hududiy endokrinologiya dispanserlarida elektron tibbiy hujjatlar aylanishini amalga oshirish imkonini beruvchi yagona tibbiy-axborot tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq qilish.	Tashkiliy c hora-tadbirlar	2022-yil IV chorak	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budget mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)
<b>II. Endokrin kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash chora-tadbirlarini takomillashtirish</b>						

4.	Sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'g'larini qamrab oluvchi, statistika, moliya va boshqa hisobotlarni birlashtirib ko'rsatgan holda endokrin patologiyali bemorlar haqidagi elektron ma'lumotlar bazasining onlayn registrini ishlab chiqish hamda bosqichma-bosqich joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Sog'liqni saqlash vazirligiga raqamlashtirish uchun ajratilgan mablag'lar doirasida	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Sabirov)</i> , RIEIATM <i>(Turayev)</i> , “IT-Med” MChJ
5.	Tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalardagi endokrinolog shifokor xonalarini zarur tibbiy uskunalar bilan (shu jumladan kompyuterlar) bilan jihozlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-aprel	4,5 mlrd so'm	Mahalliy budget mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Musayev)</i> , Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
6.	Oilaviy poliklinika va oilaviy shifokor punktlari, tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida birlamchi shifokor oldi ko'rigi xonalarini tashkil etish va jihozlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil 1-aprel	13,5 mlrd so'm	Mahalliy budget mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Inoyatov)</i> , Moliya vazirligi <i>(Abruyev)</i> , Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va



						Toshkent shahar hokimliklari
7.	<p>Tajriba sifatida har bir hududdan bittadan tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi muassasalarining laboratoriyalarini markazlashtirish va davlat-xususiy sheriklik asosida autsorsingga berish choralari ko'rish.</p> <p>Bunda, bemorlarning o'zlari biriktirilgan birlamchi tibbiyot muassasalaridan laboratoriya tahlillarini o'tkazish uchun yig'ilgan biologik materiallarni markaziy laboratoriyalarga yetkazib berish tizimini yo'lga qo'yish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil yakuniga qadar	-	-	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>(Musayev),</p> <p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
8.	<p>Markaziy laboratoriyalar faoliyati, biologik materiallarni yig'ish va tashish hamda tahlil qilish tartibini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p>	Vazir buyrug'i	2022-yil 1-aprel	-	-	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>(Musayev)</p>

9.	Premorbid endokrin kasalliklarni erta aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, sog'lom turmush tarzi, to'g'ri ovqatlanish hamda jismoniy faollik dasturlarini aholi orasida keng ko'lamda tatbiq etish bo'yicha oilaviy shifokorlar faoliyatini kuchaytirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Inoyatov),</i> Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi <i>(Odilova)</i>
10.	Uyushgan aholi (maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, litsey, kollejlari) va uyushmagan bolalarda endokrin kasalliklarni erta aniqlash bo'yicha birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasi oilaviy shifokorlari tomonidan skrining tadbirlarini (yod tanqisligi holatlari, ortiqcha vazn, pastbo'ylik, jinsiy rivojlanishning buzilishi va boshqalar)	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Inoyatov),</i> RIEIATM <i>(Turayev),</i> Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

	bosqichma-bosqich amalga oshirish.					
11	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasasida yiliga bir marta oilaviy shifokorlar tomonidan 40 yoshdan oshgan bemorlarning qandli diabet va diabet oldi holati skriningini o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida (har yili)	14,3 mlrd so'm	Respublika budjeti mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Inoyatov), RIEIATM (Turayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
12	Oilaviy shifokorlarga endokrin kasalliklar skriningini amalga oshirishda ilmiy-amaliy va metodologik yordam ko'rsatish va kasallanish ko'rsatkichlarini personallashtirilgan davolash protokollari asosida yuritishni yo'lga qo'yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)
13	Hududiy endokrinologiya dispanserlarida endokrin jarrohlik, qandli diabetning asoratlarini jarrohlik yo'li bilan davolash va rekonstruktiv amaliyotlar bo'limi, diabet nefropatiyasi va jonlantirish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Sabirov), RIEIATM (Turayev), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va

	bo'limlarini tashkil etish orqali tibbiy xizmatlar turini kengaytirish.					Toshkent shahar hokimliklari
14	Hududiy endokrinologiya dispanserlari orqali markazlashgan tartibda:	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida (har yili)			
	25 yoshgacha bo'lgan qandli diabetning birinchi turi bilan kasallangan bemorlarni analogli insulin va o'zini o'zi nazorat qilish vositalari (glyukometr va maxsus test yaproqchalari) bilan;			25,4 mlrd so'm	Respublika budjeti mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Moliya vazirligi (Ishmetov), RIEIATM (Turayev)
	qandsiz diabet bilan kasallangan, somatotrop yetishmovchilik bilan kasallangan bolalarni hayotiy zarur maxsus dori vositalari (desmopressin va o'sish gormoni) bilan;			5,9 mlrd so'm		
25 yoshdan oshgan qandli diabetning birinchi turi bilan kasallangan insulinga muhtoj, shuningdek, qandli diabetning	36,2 mlrd so'm					

	<p>ikkinchi turi bilan kasallangan bemorlarni odam insulini bilan;</p> <p>kam ta'minlangan oilalarga mansub, qandli diabet bilan kasallangan bemorlarni metformin dori vositasi bilan bepul ta'minlash.</p>					
15	<p>Endokrin kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlar va ularning oila a'zolarini kasallikni to'g'ri nazorat qilish va boshqarish, ratsional ovqatlanish, sog'lom turmush tarziga o'rgatish bo'yicha tadbirlarni "Profilaktika maktablari"da amalga oshirish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	-	-	<p>Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi</p> <p>(<i>Odilova</i>)</p>
16	<p>Hududiy endokrinologiya dispanserlarini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash orqali ularda ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar sonini 15 tadan 40 tagacha yetkazish.</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p>(<i>Sabirov</i>),</p> <p>RIEIATM</p> <p>(<i>Turayev</i>)</p>

17	Tuman (shahar) laborator-tashxislash markazlarini tashkil etish (qonda qand miqdori, glikirlangan gemoglobin, tireotrop gormoni, siydikda mikroalbuminuriya va keton tanachalarni aniqlash).	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Sog'liqni saqlash vazirligi  (Musayev)
18	Aholi o'rtasida qandli diabetni erta aniqlash va monitoring qilish maqsadida glikirlangan gemoglobinni aniqlash uchun endokrinologiya dispanserlarini reaktivlar bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida (har yili)	8,3 mlrd so'm	Mahalliy budjet mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Sog'liqni saqlash vazirligi  (Musayev)
19	Qalqonsimon bez kasalliklarini erta aniqlash maqsadida qalqonsimon hamda qalqonsimon oldi bezlari gormonlarini (erkin tiroksin, tireotrop gormon) immunoferment aniqlash uchun endokrinologiya dispanserlarini reaktivlar bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida (har yili)	5,4 mlrd so'm	Mahalliy budjet mablag'lari	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Sog'liqni saqlash vazirligi  (Musayev)

20	Endokrin kasalligi bo'lgan bemorlarni olti oyda bir marotaba tor doira mutaxassislari (oftalmolog, kardiolog, nefrolog, pediater, nevropatolog, qon-tomir jarrohi, podiatrist) ishtirokida dispanserizatsiya dan o'tkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Inoyatov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
21	Aholi va bemorlarning hayot sifatini hamda salomatligini yaxshilashga qaratilgan salomatlik dasturlarini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi  (Odilova),  MTRK  (Xadjayev)
22	Uyushgan kontingent o'rtasida (Qurolli kuchlar, IIV, oliy ta'lim muassasalari, sanoat korxonalar va boshqalar) tor doira mutaxassislari ishtirokida dispanserizatsiya ishlarini amalga oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022 — 2024-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Davlat budjeti va tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev),  RIEIATM  (Turayev)

23	Tasdiqlangan endokrin kasalliklar kechishini maqsadli kuzatish, tashxislash va davolash bosqichlarini belgilash uchun tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari shifoxonalarida bir kunlik statsionar kuzatish tizimini joriy etish.	Tashkiliy choratadbirlar	2022-yil	Hisob-kitoblar asosida	Mahalliy budget mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Inoyatov)</i> , Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
24	Bir kunlik statsionar kuzatish tizimini tashkil etish tartibini hamda bemorlarga xizmat ko'rsatish va davolash bosqichlarini belgilashning yangi standartlarini tasdiqlash.	Vazir buyrug'i	2022-yil 1-aprel	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Musayev)</i>
25	Zamonaviy yod aniqlovchi laboratoriya, yodlash uskunasi (dozator) va yodat kaliy bilan ta'minlanmagan osh tuzi ishlab chiqaruvchi tashkilotlar faoliyati bo'yicha nazoratni kuchaytirish.	Tashkiliy choratadbirlar	Doimiy	-	-	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati <i>(Yusupaliyev)</i> , Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil <i>(Kasimov)</i>



**III. Endokrinologiya xizmatini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, endokrinologiya sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish**

26	<p>Oilaviy shifokorlarga ishlab chiqilgan protokollar va davolash algoritmlari bo'yicha ortiqcha vazn, diabet oldi h<math>\diamond</math>lat, ikkinchi tur qandli diabet, yod tanqisligi, gipotireoz kasalliklarining oldini olish, davolash va nazorat asoslarini o'rgatish (metformin, kaliy yodid APF ingibitorlari, aspirin, statinlarni tavsiya etish).</p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Davlat budjeti mablag'lari	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p align="center"><i>(Inoyatov),</i></p> <p>Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi</p> <p align="center"><i>(Akilov),</i></p> <p align="center">RIEIATM</p> <p align="center"><i>(Turayev),</i></p> <p>tibbiyot oliy ta'lim muassasalari</p>
27	<p>Endokrin kasalliklarni erta aniqlash, asoratlarini oldini olish va davolashning yangi usullarini joriy etish bo'yicha viloyat va tuman (shahar) tibbiyot muassasalarining shifokorlari uchun 36 soatlik sertifikatlangan uzluksiz kurslarni tashkil etish.</p> <p>O'qitishni <a href="http://www.endomark">www.endomark</a></p>	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblar asosida	Davlat budjeti mablag'lari	<p>Sog'liqni saqlash vazirligi</p> <p align="center"><i>(Musayev),</i></p> <p>Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi</p> <p align="center"><i>(Akilov),</i></p> <p align="center">RIEIATM</p> <p align="center"><i>(Turayev),</i></p> <p>tibbiyot oliy ta'lim muassasalari</p>

	az.uz portalida interaktiv stendlar, onlayn vebinarlar, shifokorlar uchun endokrinologiya yoʻnalishida davolash va tashxislash standartlari, onlayn kurslar hamda multimediya dasturlaridan erkin foydalanish imkonini yaratish orqali amalga oshirish.					
28	Uch yarim oylik (504 soatlik) sertifikatlangan oʻquv kurslarini yoʻlga qoʻygan holda, mutaxassislarni ikki yarim oy Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida oʻqitish va bir oy hududiy tibbiyot muassasalarida amaliyot oʻtashini tashkil etish.	Reja-jadval	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblariga muvofiq	Sogʻliqni saqlash vazirligiga ajratiladigan mablagʻlar	Sogʻliqni saqlash vazirligi <i>(Musayev),</i> RIEIATM <i>(Turayev),</i> Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi <i>(Akilov),</i> tibbiyot oliy taʼlim muassasalari
29	Sogʻliqni saqlashning birlamchi tizimi uchun “Endokrinolog shifokor” yoʻnalishi boʻyicha davlat granti asosida	Reja-jadval	Doimiy	Hisob-kitoblariga muvofiq	Davlat budjeti mablagʻlari	Sogʻliqni saqlash vazirligi <i>(Musayev),</i> Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi

	bir yillik (internatura) kurslarni tibbiyot oliy ta'lim muassasalari bazasida tashkil etish.					(Toshkulov), tibbiyot oliy ta'lim muassasalari
30 .	Sog'liqni saqlashning birlamchi tizimidagi hamshiralar uchun qandli diabet va yod tanqisligi holatlarini birlamchi profilaktika qilish, aholining sog'lom turmush tarzi madaniyatini oshirish bo'yicha 36 soatlik sertifikatlangan o'quv kurslarini tashkil etish.	Reja-jadval	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblariga muvofiq	Davlat budjeti mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi (Akilov), tibbiyot oliy ta'lim muassasalari
31 .	Ortiqcha vazn, metabolik sindrom, ayollarda menopauza holatlari, YDX va bolalarda endokrin kasalliklar sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish hamda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish.	Tanlov natijalari bo'yicha ilmiy grantlar	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblariga muvofiq	Ilmiy-texnik dasturlarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), RI EIATM (Turayev)
32 .	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblar	Davlat budjeti mablag'lari	Sog'liqni saqlash vazirligi

	<p>ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bazasida quyidagi muhim yo‘nalishlar bo‘yicha uyg‘unlashgan ilmiy laboratoriyalarni tashkil etish: endokrin kasalliklar epidemiologiya si, tireoidologiya va yod tanqisligi, reproduktiv endokrinologiya, neyroendokrinologiya.</p>			asosida		<p>(Musayev), RIEIATM (Turayev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (Abduraxmonov), Fanlar akademiyasi (Yuldashev)</p>
33	<p>Mutaxassis endokrinologlar uchun xorijdagi ixtisoslashtirilgan yetakchi klinikalar va markazlarda malaka oshirish va stajirovka o‘tash kurslarini tashkil etish.</p>	Vazir buyrug‘i	Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq	Hisob-kitoblariga muvofiq	Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislari ni qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari	<p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)</p>
34	<p>Xalqaro ilmiy-amaliy hamkorlikni kengaytirish va mahorat darslari hamda yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyotini o‘tkazish uchun xorijdan yetakchi mutaxassislarni jalb etish.</p>	Reja-jadval	2022-2023-yillar davomida	Hisob-kitoblariga muvofiq	Iqtidorli va malakali tibbiyot mutaxassislari ni qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiyot muassasalariga jalb qilish jamg‘armasi mablag‘lari	<p>Sog‘liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)</p>

35	Xorijiy ilmiy tashkilotlar, markazlar hamda ekspertlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va birgalikda tadqiqotlarni tashkil qilish.	Reja-jadval	Doimiy	Hisob-kitoblariga muvofiq	Sog'liqni saqlash vazirligiga ajratiladigan mablag'lar	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), RIEIATM (Turayev)
36	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazini ushbu yo'nalishdagi ilmiy muassasaga aylantirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-2023-yillar davomida	-	-	RIEIATM (Turayev), Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev)
<b>IV. Aholi o'rtasida endokrinologik salomatlikni muhofaza qilish sohasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etish</b>						
37	Qandli diabet va yod tanqisligi holatlarini birlamchi profilaktika qilish bo'yicha aholining xabardorligini oshirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Inoyatov), Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi (Odilova)
38	Nodavlat notijorat tashkilotlarni qandli diabet va yod tanqisligi holatlariga qarshi kurashish, shu jumladan yuqori xavf va zaif kishilar guruhidagi bemorlarga	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi (Musayev), Adliya vazirligi (Davletov), O'zbekiston NNT milliy assotsiatsiyasi (Ishanxodjayev)

	ruhiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tadbirlarini amalga oshirishga jalb qilish.					
39 .	Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi tomonidan sog'lom ovqatlanish, jismoniy faollikning zarurligi, sog'lom turmush tarzini yuritish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish va ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	-	-	Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Musayev),</i> Aholi sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash markazi <i>(Odilova),</i> MTRK <i>(Xadjayev)</i>
40 .	Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda uning ko'p tarmoqli klinikasi yangi binolarga ko'chishi munosabati bilan uning tuzilmasi, shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini qayta ko'rib chiqish va tasdiqlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2022-yil	-	-	RIEIATM <i>(Turayev),</i> Sog'liqni saqlash vazirligi <i>(Musayev),</i> Moliya vazirligi <i>(Ishmetov)</i>

2022 — 2024-yillarda respublika aholisiga endokrinologiya yordami ko'rsatishni rivojlantirish dasturini amalga oshirish uchun <b>jami xarajatlar — 350,4mlrd so'm</b>					
<i>Shundan:</i>		<i>mlrd so'm</i>			
Davlat budjeti mablag'lari		350,4			
<i>shu jumladan: mahalliy budjet mablag'lari</i>		59,1			

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.01.2022-y., 07/22/102/0069-son)